

## XORAZM VILOYATIDA O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI


2026-yil yanvar-mart oylari uchun (dastlabki ma’lumotlar)

- I. O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo‘yicha o‘zgarishi dinamikasi.
- II. Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha dinamikasi.
- V. O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar.

### O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo‘yicha o‘zgarishi dinamikasi

Xorazm viloyatida 2026-yil yanvar-mart oylarida o‘rtacha oylik ish haqi 5 302,4 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 14,9 % ga o‘sgan.

Yillar kesimda o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



#### Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori**

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2026-yilning yanvar-mart oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2025-yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>5 302,4</b>	<b>114,9</b>
Urganch shahri	7 419,1	117,4
Xiva shahri	4 603,7	113,9
Bog'ot tumani	4 059,4	108,3
Gurlan tumani	3 816,5	117,3
Qo'shko'pir tumani	3 819,4	110,1
Urganch tumani	4 325,9	110,4
Hazorasp tumani	3 848,6	117,6
Tuproqqal'a tumani	6 641,9	112,1
Xonqa tumani	4 082,6	114,1
Xiva tumani	4 180,5	109,5
Shovot tumani	4 254,0	117,5
Yangiariq tumani	5 257,3	119,5
Yangibozor tumani	4 080,3	119,0

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari bir qator hududlarda kuzatildi. Jumladan, Yangiariq tumanida bu borada yetakchilik qilib, o'rtacha oylik ish haqi 5 257,3 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,5 % ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Yangibozor tumanida 4 080,3 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,0 %), Hazorasp tumanida 3 848,6 ming so'mni (117,6 %), Shovot tumanida 4 254,0 ming so'mni (117,5 %), Urganch shahrida 7 419,1 ming so'm (117,4 %) va Gurlan tumanida 3 816,5 ming so'mni (117,3 %) ni tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Xonqa tumanida 4 082,6 ming so'm (114,1 %), Xiva shahrida 4 603,7 ming so'mni (113,9 %), Urganch tumanida 4 325,9 ming so'mni (110,4 %), Qo'shko'pir tumanida 3 819,4 ming so'mni (110,1 %), Tuproqqal'a tumanida 6 641,9 ming so'm (112,1 %), Xiva tumanida 4 180,5 ming so'mni (109,5 %) boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2026-yilning yanvar-mart oylariga oid bo'lib, 2025-yilning shu davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Sanoat	5 737,4	124,4
Qurilish	4 715,7	94,3
Savdo	3 658,5	106,1
Tashish va saqlash	10 175,6	106,0
Yashash va ovqatlanish	2 350,6	91,9
Axborot va aloqa	9 420,6	112,8
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	15 936,5	127,0
Ta'lim	4 358,0	113,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4 218,9	110,0
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	3 995,5	114,0
<b>O'rtacha</b>	<b>5 302,4</b>	<b>114,9</b>

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari bank, sug'urta, lizing, kredit va moliyaviy vositachilik faoliyati sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 127,0 % ni tashkil qilgani, ish haqi miqdori esa 15 936,5 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, ta'lim yo'nalishlarida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, Sanoat sohasida o'rtacha ish haqi miqdori 5 737,4 ming so'mni tashkil etib, o'sish 24,4 % ga, San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida ish haqi miqdori 3 995,5 ming so'mni tashkil etib, 14,0 % ga, Ta'lim sohalarida esa 4 358,0 ming so'mni tashkil etib, o'sish 13,3 % ga, Axborot va aloqa sohasida o'rtacha ish haqi 9 420,6 ming so'mni tashkil etib, 12,8 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 4 218,9 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,0 % ga, savdo sohasida 3 658,5 ming so'mni tashkil etib, 6,1 % ga, Tashish va saqlashda 10 175,6 ming so'mni tashkil etib, 6,0 % ga o'sgan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2026-yilning 1-choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 15 936,5 ming so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 8 190,8 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda tashish va saqlash sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 3 619,7 ming so'mga, Axborot va aloqa sohasida 5 592,0 ming so'mga, sanoat sohasida 2 556,8 ming so'mga, qurilish sohasida 1 583,1 ming so'mga, Ta'lim sohasida 1 981,7 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

### O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi, ming so'm




**Sanoat sohasida** o‘rtacha oylik ish haqi 5 737,4 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning tarkibi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi miqdori elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida 8 706,7 ming so‘m, ishlab chiqarish sanoati sohasida 5 288,7 ming so‘m, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish sohasida 4 249,3 ming so‘m ekanligi kuzatildi.

**Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o‘zgarish dinamikasi, ming so‘m**




**Savdo sohasida** o‘rtacha oylik ish haqi 3 658,5 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning tarkibi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘minlash tarmog‘ida 5 590,0 ming so‘mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasida 3 381,1 ming so‘mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasida 3 071,4 ming so‘mni tashkil etgan.

**Savdo sohasida ish haqi miqdorining o‘zgarish dinamikasi, ming so‘m**




**Tashish va saqlash sohasida** oʻrtacha oylik ish haqi 10 175,6 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning ayrim sohalari boʻyicha oʻrtacha oylik ish haqi miqdori ombor xoʻjaligi va yordamchi transport sohasida 7 749,0 ming soʻmni, quruqlikdagi va quvur transporti sohasida 11 459,4 ming soʻmni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida 2 990,1 ming soʻmni tashkil etgan.

**Tashish va saqlash sohasida ish haqi oʻzgarishi dinamikasi, ming soʻm**




**Axborot va aloqa sohasida** oʻrtacha oylik ish haqi 9 420,6 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, uning ayrim sohalari boʻyicha oʻrtacha oylik ish haqi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar sohasida 12 276,5 ming soʻm, axborot xizmati koʻrsatish sohasida 4 148,2 ming soʻmni, aloqa sohasida 9 874,6 ming soʻmni tashkil etgan.

**Axborot va aloqa sohasida ish haqi oʻzgarishi dinamikasi, ming soʻm**




**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida** o'rtacha oylik ish haqi 15 936,5 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasida 13 346,3 ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 16 133,6 ming so'mni tashkil etgan.

**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm**



**Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm**

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 358,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 10 691,9 ming so'mni, texnik va professional ta'lim sohasida 4 782,9 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim sohasida 4 442,0 ming so'mni, maktabgacha ta'lim sohasida esa 2 299,4 ming so'mni tashkil etgan.



**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotlar korxonalar va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma’lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo‘jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxonalar va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo‘jaliklari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e’lon qilinadi.

**Ma’lumot uchun:** *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo‘jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.*

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma’lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**Hisobot oyi uchun** nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

$W_n$  –nominal hisoblangan ish haqi;

$F$  – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar;

$L$  – hisobot oyi uchun xodimlarning o‘rtacha soni;

Nominal hisoblangan o‘rtacha oylik ish haqini hisoblash O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasining 2025-yil 30-maydagi 8-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo‘yicha uslubiy nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama’lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo‘yicha ish haqi miqdorini baholash bo‘yicha uslubiy nizom](#)

---

**Tayyorlash uchun mas’ul:**  
Demografiya, mehnat va gender  
statistikasi bo‘limi

**Tel:**  
(62)227-77-88 (90-70)

**Manzil:** Urganch shahar  
Al-Xorazmiy ko‘chasi,93-uy

---